


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun  
Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации  
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением  
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## TARIX

1. **Mo‘minjon Salayev Atabayevich**  
BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
2. **Tilovboyeva Mardona Aybekovna**  
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
3. **Акрамова Ф.А.**  
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
4. **Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**  
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
5. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**  
QO‘NG‘IROTTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
6. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**  
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
7. **Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**  
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
8. **Kenjayev Hasan Atanazarovich**  
XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE’ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSHUR MISOLIDA.....64
9. **Қадамбаев III.**  
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
10. **Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**  
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

## IQTISOD

1. **Radjabova Mavluda Ergash Qizi**  
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
2. **Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**  
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

|                                                                                                                                  |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna</b>                            |    |
| TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA..... | 89 |

## FILOLOGIYA

|                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>1. Adizova Surayyo Abduxoligovna</b>                                                                         |     |
| INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA)..... | 97  |
| <b>2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna</b>                                                                    |     |
| ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....                                     | 103 |
| <b>3. Khudoyshekur Makhmudov</b>                                                                                |     |
| TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....               | 107 |

## PEDAGOGIKA

|                                                                                                                                                          |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>1. Sh.E.Yakubova</b>                                                                                                                                  |     |
| “OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..                       | 112 |
| <b>2. Kalandarova Madina Baxadirovna</b>                                                                                                                 |     |
| IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....                                                 | 116 |
| <b>3. Kasimova Xulkar Atabayevna</b>                                                                                                                     |     |
| NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR..... | 120 |
| <b>4. Абибуллаев Арсен Редванович</b>                                                                                                                    |     |
| ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....                                            | 124 |
| <b>5. Шарипова Мадина</b>                                                                                                                                |     |
| ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....       | 129 |
| <b>6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna</b>                                                                                                                  |     |
| OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....                     | 136 |
| <b>7. Xasanboyev Javohir</b>                                                                                                                             |     |
| O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....                                                                          | 145 |

**Pulatova Zulfiya Abduazizovna**

PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor

The university of public safety

Tashkent, Uzbekistan

zulfiyapulatova79@mail.ru

**OLIJ HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARNING KOMMUNIKATIV  
KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA  
TAKOMILLASHTIRISH**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21980269>

**ANNOTATSIYA:** Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini baholash metodikasini HKT–Indeksi asosida takomillashtirishning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida kommunikativ kompetensiyani baholashning mavjud ilmiy yondashuvlarini tahlil qilish, harbiy ta'lim ning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda HKT–Indeksi metodologiyasining tarkibiy elementlarini aniqlash hamda baholash jarayonining obyektivligi, izchilligi va tezkorligini ta'minlaydigan konseptual modelni asoslash belgilandi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kompetensiyaviy yondashuv, modellashtirish va ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida kommunikativ kompetensiyani kompleks baholashga xizmat qiluvchi HKT–Indeksi metodologiyasining konseptual modeli ishlab chiqildi hamda uning baholash mezonlari, indikatorlari va darajalari ilmiy jihatdan asoslandi. Taklif etilgan metodika baholash jarayonini standartlashtirish, natijalarning ishonchliligi va obyektivligini oshirish, shuningdek, kursantlarning kommunikativ rivojlanish dinamikasini muntazam monitoring qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari oliy harbiy ta'lim muassasalarida kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini takomillashtirishga, ta'lim sifati monitoringini kuchaytirishga hamda keyingi bosqichda HKT–Indeksi asosida sun'iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalashgan operativ fidbek tizimini ishlab chiqish uchun nazariy-metodologik asos yaratishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, oliy harbiy ta'lim, HKT–Indeksi, kompetensiyaga asoslangan baholash, baholash metodikasi, baholash mezonlari, kommunikativ ko'nikmalar, ta'lim sifati, harbiy pedagogika, sun'iy intellekt.

**Zulfiya Abduazizovna Pulatova**

PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor

The University of Public Safety

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: zulfiyapulatova79@mail.ru

**IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ASSESSING CADETS' COMMUNICATIVE  
COMPETENCE IN HIGHER MILITARY EDUCATION BASED ON THE MCR-INDEX**

### ABSTRACT

The primary objective of this study is to develop the theoretical and methodological foundations for improving the methodology for assessing cadets' communicative competence in higher military education based on the MCR-Index. The study aims to analyze existing scientific approaches to communicative competence assessment, identify the structural components of the MCR-Index methodology by considering the specific characteristics of military education, and establish a conceptual framework that ensures the objectivity, consistency, and efficiency of the assessment process.

The research employed a combination of systematic analysis, comparative analysis, the competency-based approach, pedagogical modeling, and content analysis of relevant scientific literature. The findings resulted in the development of a conceptual model of the MCR-Index, designed to provide a comprehensive assessment of communicative competence. In addition, scientifically grounded assessment criteria, indicators, and proficiency levels were established within the proposed methodology.

The proposed assessment framework standardizes the evaluation process, enhances the reliability and objectivity of assessment outcomes, and enables continuous monitoring of cadets' communicative competence development. The findings contribute to the improvement of competency-based assessment systems in higher military education institutions, strengthen educational quality assurance mechanisms, and provide a theoretical and methodological foundation for the future development of an artificial intelligence-integrated real-time feedback system based on the MCR-Index.

**Keywords:** communicative competence; higher military education; MCR-Index; competency-based assessment; assessment methodology; assessment criteria; communicative skills; educational quality; military pedagogy; artificial intelligence.

---

**Пулатова Зульфия Абдуазизовна**

доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Университет общественной безопасности

Ташкент, Узбекистан

E-mail: zulfiyapulatova79@mail.ru

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОЦЕНКИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ КУРСАНТОВ В ВЫСШЕМ ВОЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ ВКП-ИНДЕКСА

#### АННОТАЦИЯ

Основной целью данного исследования является разработка теоретических и методологических основ совершенствования методики оценки коммуникативной компетентности курсантов высших военно-образовательных учреждений на основе ВКП-индекса. В рамках исследования проведён анализ существующих научных подходов к оценке коммуникативной компетентности, определены структурные компоненты методологии ВКП-индекса с учётом специфики военного образования, а также обоснована концептуальная модель, обеспечивающая объективность, последовательность и оперативность процесса оценивания.

В исследовании использованы методы системного и сравнительного анализа, компетентностный подход, педагогическое моделирование и контент-анализ научной литературы. В результате разработана концептуальная модель ВКП-индекса, предназначенная для комплексной оценки коммуникативной компетентности курсантов. Кроме того, научно обоснованы критерии, показатели и уровни оценивания, составляющие основу предложенной методики.

Разработанная методика позволяет стандартизировать процесс оценивания, повысить достоверность и объективность его результатов, а также обеспечить систематический мониторинг динамики развития коммуникативной компетентности курсантов. Полученные результаты способствуют совершенствованию компетентностно-ориентированной системы оценивания в высших военно-образовательных учреждениях, повышению эффективности мониторинга качества образования и формированию теоретико-методологической основы для дальнейшей разработки интегрированной с технологиями искусственного интеллекта системы оперативной обратной связи на базе ВКП-индекса.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, высшее военное образование, ВКП-индекс, оценивание, ориентированное на компетенции, методика оценивания, критерии оценивания, коммуникативные навыки, качество образования, военная педагогика, искусственный интеллект.

## KIRISH

Bugungi kunda oliy harbiy ta'lim tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri kompetensiyaga asoslangan ta'lim ni rivojlantirish hamda ta'lim natijalarini obyektiv baholash mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat. Harbiy mutaxassisning kasbiy faoliyati samaradorligi nafaqat uning nazariy bilimlari va amaliy tayyorgarligiga, balki turli xizmat vaziyatlarida samarali muloqot qilish, jamoani boshqarish, muzokara olib borish hamda tezkor qaror qabul qilish kabi kommunikativ kompetensiyalariga ham bevosita bog'liq. Shu sababli kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini ilmiy asoslangan mezonlar asosida baholash oliy harbiy ta'lim ning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilk bor D.H. Hymes tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u tilni bilish bilan bir qatorda undan real kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalanish qobiliyatini ham o'z ichiga olishini ta'kidlagan [Hymes, 1972, 277–293]. Mazkur yondashuv keyinchalik M. Canale va M. Swain tomonidan rivojlantirilib, kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlari asoslab berildi [Canale & Swain, 1980, 27–31]. Til kompetensiyasini baholashning nazariy va metodologik asoslari L.F. Bachman hamda A.S. Palmer tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular baholashning validligi, ishonchliligi va autentikligini kommunikativ yondashuvning asosiy mezonlari sifatida e'tirof etgan [Bachman, 1990, 84–102; Bachman & Palmer, 1996, 18–41].

Respublikamizda xorijiy tillarni o'qitish metodikasi hamda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari J.J. Jalolov, L.T. Axmedova, M.T. Irisqulov va T.K. Sattarovning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur olimlar tomonidan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, kompetensiyaga asoslangan ta'lim ni tashkil etish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning metodik asoslari ishlab chiqilgan [Jalolov, 2012, 18–36; Axmedova, 2018, 24–41; Irisqulov, 2009, 15–29]. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishning o'ziga xos jihatlari va kursantlarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari S.S. Mengliyeva, S.I. Musayeva hamda I.R. Yoqubovanning ilmiy ishlarida tahlil qilingan [Mengliyeva, 2021, 58–71; Musayeva, 2022, 74–88].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyani baholashga oid metodikalar asosan umumiy yoki fuqarolik oliy ta'lim i ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan. Oliy harbiy ta'lim sharoitida kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini kompleks indikatorlar tizimi asosida baholash, baholash natijalarini integral indeks ko'rinishida ifodalash hamda ular asosida tezkor pedagogik tahlil va individual rivojlanish monitoringini amalga oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan metodik yechimlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, baholash jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini yagona metodologik asosda integratsiyalash masalasi alohida tadqiqotni talab qiladi.

Mazkur ilmiy bo'shliqni bartaraf etish maqsadida ushbu maqolada HKT-Indeksi asosida oliy harbiy ta'lim da kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini baholash metodikasini takomillashtirishning nazariy va metodologik asoslari ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari

kommunikativ kompetensiyani obyektiv baholash tizimini takomillashtirish hamda keyingi bosqichda HKT–AI Operativ Fidbek Modulini yaratish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

### TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotning metodologik yaxlitligi va ilmiy ishonchliligini ta'minlash maqsadida o'zaro bog'liq ilmiy-tadqiqot usullari majmuasidan foydalanildi. Jumladan, nazariy usullar (ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda pedagogik modellashtirish) orqali kommunikativ kompetensiyani baholashning mavjud yondashuvlari o'rganildi va HKT–Indeksi metodologiyasining nazariy asoslari ishlab chiqildi.

Diagnostic usullar (kuzatish, so'rovnomalar, suhbat va test sinovlari) yordamida kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hamda baholash indikatorlari aniqlandi. Prognostik usullar, xususan ekspert baholash va Delphi usuli elementlaridan foydalanish orqali HKT–Indeksi tarkibiga kiritilgan mezonlar va indikatorlarning mazmunini validligi baholandi.

Tadqiqotning amaliy bosqichida pedagogik tajriba-sinov usuli qo'llanilib, taklif etilgan HKT–Indeksi asosidagi baholash metodikasining samaradorligi eksperimental sharoitda sinovdan o'tkazildi. Olingan empirik ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berish usullari (deskriptiv statistika, Studentning t-mezoni, korrelyatsion tahlil hamda grafik vizuallashtirish) qo'llanilib, tajriba natijalarining ishonchliligi va statistik ahamiyatliligi aniqlandi.

Natijada qo'llanilgan tadqiqot usullari HKT–Indeksi asosida kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini kompleks baholash metodikasini ilmiy jihatdan asoslash hamda uning amaliy samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

### NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda harbiy oliy ta'lim muassasalarida kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini aniqlash, amaldagi baholash tizimining samaradorligini o'rganish hamda taklif etilayotgan "HKT–AI Operativ Fidbek Moduli" asosidagi baholash mexanizmining natijadorligini statistik jihatdan asoslash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida jami 485 nafar kursant ishtirok etdi. Shundan 244 nafari tajriba guruhi, 241 nafari esa nazorat guruhiga ajratildi (1.1-jadvalga qarang):

#### 1.1-jadval:

#### Tajriba-sinov maydonlari va respondentlar tarkibi

| № | Harbiy ta'lim muassasasi                                                                                                                         | Umumiy     | Tajriba    | Nazorat    |
|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|------------|------------|
| 1 | Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti (DBQBI)                                                                                               | 80         | 40         | 40         |
| 2 | O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti (JXU)                                                                                   | 100        | 51         | 49         |
| 3 | O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi (FVVA)                                                                      | 75         | 38         | 37         |
| 4 | O'zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa universiteti Harbiy aviatsiya instituti (HXMUHAI)                                          | 70         | 35         | 35         |
| 5 | O'zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti (HXMUAKTHAI) | 70         | 35         | 35         |
| 6 | O'zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa universiteti Quruqlikdagi Qo'shinlar instituti (HXMUQQI)                                   | 90         | 45         | 45         |
|   | <b>Jami</b>                                                                                                                                      | <b>485</b> | <b>244</b> | <b>241</b> |

Tajriba-sinov ishlari davomida kursantlarning kommunikativ kompetensiyasi quyidagi oltita tarkibiy komponent asosida baholandi:

- Listening; Tinglash
- Reading; O'qish
- Writing; Yozuv
- Speaking; Gapirish
- Grammar; Grammatika
- Vocabulary. Lug'at boyligi

**Natijalar tahlili quyidagicha:**

Tajriba-sinov ishlari yakunlari bo'yicha olingan natijalar tahlili kursantlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholash hamda harbiy-professional muloqot jarayonlarida zarur bo'lgan lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va kasbiy-kommunikativ ko'nikmalarining shakllanish darajasini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot davomida HKT (Harbiy-professional kommunikativ tayyorgarlik) metodikasi hamda uning sun'iy intellekt asosidagi "HKT-AI Operativ Fidbek Moduli" yordamida olingan natijalar amaldagi baholash tizimi ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy g'oyalar, ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar va baholash mexanizmlarining amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida yakuniy nazorat ishlari o'tkazildi. Yakuniy baholash jarayonida kursantlarning ingliz tilida harbiy-professional vaziyatlarda muloqot olib borish, terminologik leksikadan to'g'ri foydalanish, kasbiy mazmundagi axborotni qabul qilish va uzatish hamda kommunikativ vazifalarni mustaqil hal etish ko'nikmalari maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi.

Olingan natijalarning statistik tahlili tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida kommunikativ kompetensiyaning rivojlanish dinamikasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, HKT metodikasi va "HKT-AI Operativ Fidbek Moduli" qo'llanilgan tajriba guruhlarida kursantlarning kommunikativ kompetensiya ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lsa, an'anaviy baholash tizimi qo'llanilgan nazorat guruhlarida ushbu o'sish nisbatan past darajada kuzatildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar tahlili taklif etilgan baholash metodikasining kursantlarning ingliz tilidagi kommunikativ tayyorgarligini yanada aniq, obyektiv va kompleks baholash imkoniyatini yaratishini hamda ularning harbiy-professional kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qilishini tasdiqladi.

Olingan natijalar 2-bosqich (tajriba boshi va tajriba yakuni)da tahlil qilindi va ular tahlilini o'tkazishda Styudent mezoni asosida statistik tahlil amalga oshirildi.


Dastlabki olingan natijalarning tarkibiy komponentlar umumiy ko'rinishlari bo'yicha barcha OTM(jami) natijalariga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha qiymatini hisoblaymiz (1.2-jadvalga qarang):

1.2-jadval:

Dastlabki tajriba-sinov ko'rsatkichlari asosida statistik tahlil natijalari

|                             | Kursantlar soni | 5 - yuqori | 4 - nisbatan yuqori | 3 - o'rta | 2 - past |
|-----------------------------|-----------------|------------|---------------------|-----------|----------|
| Tajriba guruhi (1-tanlanma) | 244             | 34         | 58                  | 118       | 34       |
| Nazorat guruhi (2-tanlanma) | 241             | 34         | 58                  | 116       | 33       |

Bu tanlanmalarga mos ravishda gistogramma ko'rinishi (1.3-rasmga qarang):



1.3-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining nisbatlari


Tajriba-sinov ishlaridan keyingi hisoblash ishlarini kursantlar kommunikativ kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlashni barcha OTM(jami) natijalari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha qiymatini hisoblaymiz (1.4-jadvalga qarang):

**1.4-jadval:**

**Rivojlanganlik darajasi bo'yicha o'rtacha qiymat**

|                                    | Kursantlar soni | 5 - yuqori | 4 - nisbatan yuqori | 3 - o'rta | 2 - past |
|------------------------------------|-----------------|------------|---------------------|-----------|----------|
| <b>Tajriba guruhi (1-tanlanma)</b> | 244             | 71         | 95                  | 70        | 9        |
| <b>Nazorat guruhi (2-tanlanma)</b> | 241             | 41         | 62                  | 109       | 29       |

Bu tanlanmalarga mos ravishda gistogramma ko'rinishi (1.5-rasmga qarang):



**1.5-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining nisbatini**

Bundan ko'rinadiki, yuqoridagi o'qib tushunish mezonini bo'yicha olingan natijalarda farq mavjud bo'lib, o'rtacha qiymatlar tajriba guruhlarida katta hisoblanadi va uning bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichi 1,13 ga (13% samaradorlikka) teng. Bu esa, tajriba guruhida olingan natijalarning ishonchli ekanligini ko'rsatadi

## MUNOZARA

Tajriba-sinov natijalari HKT metodikasi hamda sun'iy intellekt asosidagi "HKT-AI Operativ Fidbek Moduli"ni qo'llash kursantlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini baholash samaradorligini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi. Tajriba guruhi kursantlarining tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirish, grammatika va lug'at boyligi bo'yicha erishgan natijalari taklif etilgan metodikaning amaliy samaradorligini tasdiqladi. Statistik tahlilda aniqlangan 13 foizlik o'sish ko'rsatkichi tadqiqot boshida ilgari surilgan HKT-Indeksi asosidagi kompleks baholash metodikasi kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini an'anaviy baholash tizimiga nisbatan samaraliroq aniqlaydi, degan ilmiy gipotezaning tasdiqlanganligini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslari bo'yicha mavjud ilmiy qarashlarni ham tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari aynan ushbu komponentlarni yagona baholash

tizimiga integratsiyalash kursantlarning haqiqiy kommunikativ tayyorgarligini aniqroq baholash imkonini berishini ko'rsatdi.

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan HKT–Indeksi ushbu tamoyillarga tayangan holda baholash natijalarini standartlashtirish, indikatorlar asosida integrallash hamda turli kursantlar natijalarini o'zaro qiyoslash imkonini berdi. Shu jihatdan HKT metodikasi kommunikativ kompetensiyani baholashning mavjud yondashuvlarini to'ldiruvchi va harbiy ta'lim sharoitiga moslashtiruvchi metodologik yechim sifatida namoyon bo'ldi.

Olingan natijalar respublikamiz olimlari tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ yondashuvning metodik tamoyillari bilan ham uyg'unlik kasb etadi. Biroq mazkur tadqiqotlardan farqli ravishda, ushbu ishda asosiy e'tibor kommunikativ kompetensiyani shakllantirish emas, balki uni indikatorlarga asoslangan integral indeks orqali baholashga qaratildi. Shuningdek, baholash natijalarini sun'iy intellekt asosida avtomatik tahlil qilish mexanizmi taklif etilgani metodikaning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt elementlarini baholash jarayoniga integratsiyalash o'qituvchilarga kursantlarning kommunikativ kompetensiyasi bo'yicha tezkor tahliliy ma'lumotlarni olish, individual kamchiliklarni aniqlash hamda o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini berishi kuzatildi. Mazkur natijalar ta'lim da raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha zamonaviy ilmiy tendensiyalar bilan ham mos keladi hamda baholash jarayonini faqat nazorat vositasi emas, balki ta'lim sifatini boshqarish instrumentiga aylantirish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlarga ega. Tajriba-sinov ishlari faqat oltita oliy harbiy ta'lim muassasasida va ingliz tili fanini o'qitish jarayonida amalga oshirildi. Bundan tashqari, "HKT–AI Operativ Fidbek Moduli"ning ayrim analitik funksiyalari prototip darajasida sinovdan o'tkazildi. Kelgusidagi tadqiqotlarda metodikani boshqa harbiy mutaxassisliklar, xorijiy tillar va kengroq respondentlar guruhi ishtirokida tekshirish, shuningdek, sun'iy intellekt algoritmlarining adaptiv imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, olingan natijalar HKT–Indeksi asosida ishlab chiqilgan baholash metodikasi kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini obyektiv, kompleks va ishonchli baholash imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirishini tasdiqladi. Mazkur metodika kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini yagona indikatorlar tizimi asosida integrallashgan holda baholash, baholash natijalarining aniqligi va takrorlanuvchanligini ta'minlash hamda kursantlarning individual rivojlanish darajasini monitoring qilish imkonini beradi. Shuningdek, "HKT–AI Operativ Fidbek Moduli" baholash natijalarini real vaqt rejimida tezkor tahlil qilish, kursantlarning kuchli va rivojlantirilishi zarur bo'lgan kompetensiyalarini aniqlash, shuningdek, o'qituvchilarga ilmiy asoslangan individual pedagogik tavsiyalarni shakllantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada baholash jarayoni nafaqat o'quv natijalarini aniqlash vositasi, balki ta'lim sifatini boshqarish, pedagogik qarorlar qabul qilish va kursantlarning kasbiy-kommunikativ tayyorgarligini uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

### XULOSA

Mazkur tadqiqot natijasida oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini baholashning mavjud yondashuvlari tahlil qilinib, ularning metodik imkoniyatlari hamda mavjud cheklovlari aniqlandi. Tadqiqot davomida kommunikativ kompetensiyani baholashning kompetensiyaviy, tizimli va indikatorlarga asoslangan yondashuvlarini integratsiyalovchi HKT–Indeksi metodologiyasi ishlab chiqildi hamda uning nazariy-metodologik asoslari ilmiy jihatdan asoslandi. Statistik tahlil natijalari tajriba guruhlarida kommunikativ kompetensiya ko'rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan yuqori darajada o'sganligini ko'rsatib, ushbu metodikaning pedagogik samaradorligini isbotladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi kommunikativ kompetensiyani baholashning alohida ko'nikmalariga emas, balki ularning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi integral HKT–Indeksini ishlab chiqish, shuningdek, baholash natijalarini sun'iy intellekt asosida operativ tahlil qilish imkonini beruvchi HKT–AI Operativ Fidbek Modulining konseptual modelini yaratishda namoyon

bo'ladi. Mazkur yondashuv baholash jarayonini standartlashtirish, individual rivojlanish dinamikasini monitoring qilish hamda pedagogik qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari oliy harbiy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish jarayonini takomillashtirish, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini modernizatsiya qilish hamda ta'lim ning raqamli transformatsiyasini qo'llab-quvvatlashda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqilgan metodika o'quv dasturlarini takomillashtirish, baholash mezonlarini standartlashtirish va kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini uzluksiz monitoring qilishda foydalanilishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda HKT–Indeksini boshqa harbiy mutaxassisliklar va xorijiy tillarga moslashtirish, sun'iy intellekt algoritmlarining adaptiv imkoniyatlarini kengaytirish hamda baholash natijalarini real vaqt rejimida prognozlash va shaxsiylashtirilgan ta'lim trayektoriyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan raqamli platformalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bachman, L. F. (1990). *Fundamental considerations in language testing*. Oxford University Press.
2. Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (1996). *Language testing in practice: Designing and developing useful language tests*. Oxford University Press.
3. Canale, M. (1983). From communicative competence to communicative language pedagogy. In J. C. Richards & R. W. Schmidt (Eds.), *Language and communication* (pp. 2–27). Longman.
4. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47. <https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1>
5. Council of Europe. (2020). *Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment—Companion volume*. Council of Europe Publishing.
6. Douglas, D. (2000). *Assessing languages for specific purposes*. Cambridge University Press.
7. Ellis, R. (2009). Corrective feedback and teacher development. *L2 Journal*, 1(1), 3–18. <https://doi.org/10.5070/L2119062>
8. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected readings* (pp. 269–293). Penguin Books.
9. Lyster, R., & Ranta, L. (1997). Corrective feedback and learner uptake: Negotiation of form in communicative classrooms. *Studies in Second Language Acquisition*, 19(1), 37–66. <https://doi.org/10.1017/S0272263197001034>
10. Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.
11. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
12. Weir, C. J. (2005). *Language testing and validation: An evidence-based approach*. Palgrave Macmillan.
13. Uzbek Sources (APA 7)
14. Axmedova, L. T. (2018). Ingliz tilini o'qitish metodikasi. *Tafakkur Bo'stoni*.
15. Irisqulov, M. T. (2009). Chet tillarni o'qitish metodikasi. *Sharq*.
16. Jalolov, J. J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. *O'qituvchi*.
17. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
18. Bachman, L. F. (1990). *Fundamental Considerations in Language Testing*. Oxford University Press.
19. Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (1996). *Language Testing in Practice: Designing and Developing Useful Language Tests*. Oxford University Press.
20. Canale, M. (1983). From communicative competence to communicative language pedagogy. In J. C. Richards & R. W. Schmidt (Eds.), *Language and Communication* (pp. 2–27). Longman.

21. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47. <https://doi.org/10.1093/applin/1.1.1>
22. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment: Companion Volume*. Council of Europe Publishing.
23. Ellis, R. (2009). Corrective feedback and teacher development. *L2 Journal*, 1(1), 3–18. <https://doi.org/10.5070/L2119062>
24. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected Readings* (pp. 269–293). Penguin Books.
25. Lyster, R., & Ranta, L. (1997). Corrective feedback and learner uptake: Negotiation of form in communicative classrooms. *Studies in Second Language Acquisition*, 19(1), 37–66. <https://doi.org/10.1017/S0272263197001034>
26. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press.
27. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
28. UNESCO. (2023). *Guidance for Generative AI in Education and Research*. UNESCO. <https://unesdoc.unesco.org/>
29. Weir, C. J. (2005). *Language Testing and Validation: An Evidence-Based Approach*. Palgrave Macmillan.
30. Axmedova, L. T. (2018). Ingliz tilini o'qitish metodikasi. *Tafakkur Bo'stoni*.
31. Irisqulov, M. T. (2009). Chet tillarni o'qitish metodikasi. *Sharq*.
32. Jalolov, J. J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. *O'qituvchi*.
33. Mengliyeva, S. S. (2021). Oliy harbiy ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish. *Fan*.
34. Musayeva, S. I. (2022). Harbiy ta'lim da kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari. *Tafakkur*.
35. Yoqubova, I. R. (2021). Harbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishning zamonaviy metodlari. *Innovatsion rivojlanish nashriyoti*.

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorda ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].